

TARIXIY ASARLARDA ANTROPONOMIK PERIFRAZALAR

To‘xtayeva Zaynura O‘ktam qizi

BuxDU, Filologiya fakulteti

Lingvistika: O‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA:

Maqlolada tarixiy asarlarda qo‘llangan antroponomik perifrazalar tahlil qilingan. So‘z mulkining dahosi, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Hazrat Alisher Navoiy tarixiy asarlari “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, qomusiy olim, tilshunos Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarlariga murojaat qilingan bo‘lib, ularda qo‘llangan tasviriy ifodalar tahlilga tortilgan hamda ularning tilshunos sifatidagi mahorati, perifrazalar nutqning ta’sirchanligi, badiyilagini ta’minlovchi uslubiy vositalardan biri ekanligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistika, til, tilshunoslik, tafakkur, tarix, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Boburnoma”, “Mehrobdan chayon” perifraza, izoh, lug‘at.

Til – noyob xazina. Til inson tafakkuri bilan bog‘liq jarayon. Shu bilan bir qatorda muayyan darajada aniqlashtirilgan va tartibga solingan, tizimlashtirilgan tushunchalar majmuidir. Tildagi imkoniyatlardan har bir ijodkor o‘z salohiyati va imkoniyatidan kelib chiqib foydalanadi.

Nomshunoslikning kishi ismlarini o‘rganuvchi bo‘limi antroponomika deb yuritiladi. XX asrning ikkinchi yarmi XIX asrning boshlarida ahon tilshunosligida antroposentrizmning ilmiy tadqiqotlarda ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanishi, barcha ilmiy sohalarda inson shaxsini o‘rganishga e’tibor ortishi bilan xarakterlanadi.

Tarixiy asarlarda kishilarning ismlari ularning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqqan holda perifrazalanib nomlangan. Shu jumladan, Hazrat Alisher Navoiyning 1488-yilda yaratilgan “Tarixi mulki ajam” (“Ajam shohlari tarixi”) asaridagi antroponimlar buning yorqin ifodasidir. Masalan:

Odil podshoh – Manuchehr

Manuchehr Erajning qizining o‘g‘li erdi. Bazi debturlarkim, o‘g‘lining o‘g‘li. Va el ani odil podshoh der edi [6, 190].

Ayyosh va beparvo kishi – Navdar

Navdar Manuchehrning o‘g‘lidur. Otasidin so‘ngra mulk anga yetti. Ammo u ayyosh va beparvo kishi erdi [6, 190].

Sehri Narimon – Navdar

Bazi tavorixda Navdarni Sehri Narimon debturlar. Va podshohligi ba'zi olti va ba'zi ikki yil debturlar [6, 191].

Muxtalif mijoz va munqalib roy kishi – Kaykovus

Kaykovuskim, ba'zi Kayqubodning o'g'lidur debturlar, ammo ko'prak va nabirasi debturlar. Va ul muxtalif mijoz va munqalib roy kishi erdi [6, 193].

Bag'oyat rashid va bahodir kishi – Luhrasp

Luhrasp binni Avrand Kaykovusning inisining o'g'lidur. Bu jihattin chun bag'oyat rashid va bahodir kishi erdi [6, 196].

Xiradmand va pahlavon va xo'p surat podshoh – Dorob

Dorob chun Humoy o'rniq'a taxtqa o'lturdi, adl va dod pesha qildi. Va ul xiradmand va pahlavon va xo'p surat podshoh erdi [6, 200].

Kofiy va oqil kishi – Rashitan

Va Rashitan otliq vaziri bor erdi, kofiy va oqil kishi erdi, Dorobjurd shahrini ul yasab, Dorob otig'a tasmiya qildi [6, 200].

Olim va odil kishi – Eron binni Yalosh

Eron binni Yalosh. Gudarzning qardoshi o'g'li erdi. Olim va odil kishi erdi [6, 205].

Hunarparvar podshoh – Xisrav binni Firuz

Xisrav binni Firuz aning qoimmaqomi bo'ldi va ul hunarparvar podshoh erdi. Hunar ahlin sevar erdi [6, 206].

Akobiralar – Sosoniylar

To'rtinch tabaqa Sosoniylardur. Kim alarni akobiralar ham debdurlar [6, 207].

Husnu jamol va rushdu kamolda nodir – Shohpur

Bu holdin oz vaqt o'tgach, homila tug'uldi va vazir anga Shohpur ot qo'ydi. Husnu jamol va rushdu kamolda nodir bo'lib erdi [6, 209].

Zamona yagonasi – Borbad

Yana bir Borbad nomli mug'anniy bor erdikim, xalq ani "zamona yagonasi" derdi [6, 229].

Zamona a'lami – Buzurg Umid

Yana Buzurg Umiddek vaziri bor erdikim, aning zamona a'lami erdi. Ul ham g'arib amr erdi [6, 229].

Olam Nodirasi – Shirin, olam ajubasi – Farhod

Biri ulkim, agarchi Shirindek olam Nodirasi bor erdi, vale Farhoddek ham olam ajubasi bor erdikim, ishq va niyoq atrofiddin bovujudi Xusravdek podshoh ko'ngli Farhodga mayl qilib, iltifot va tarahhumlar zohir qildi [6, 230].

Amiral mo'minin – Umar raziy ollohu anhu

Va Yazdijurd muddate sa'y qilib, ilik-oyoq urdi va bo'ldura olmadi va amirul-mo'minin Umar raziy ollohu anhu cherikiga mulkun oldurub, qochib mulk arab ilkiga tushti va islom livosi sarafroz bo'lib, kufr alami nigunsor bo'ldi [6, 235].

So'z mulkining dahosi Hazrat Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida ham antroponomik perifrazalar mavjud bo'lib, "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg'ambarlar va hakimlar tarixi", 1485–1498) asarining birinchi bo'limida "Qissasul-anbiyo"lar an'analarini davom ettirib, Odam alayhis-salomdan Nuh, Iso, Muso, Ya'qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud kabi payg'ambarlar tarixiga oid qissalar keltiriladi. Mana shunday ulug' asarda o'zbek adabiy tilining asoschisi so'z boyligini yana bir karra namoyish qilib, shaxs nomlarini perifrazalab qo'llaganligiga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan:

Kufr va inod ahli – Qobil avlodni

Va Qobil avlodikim, kufr va inod ahli bo'lib, otashparastliqqa juda mashg'ul erdilar, qolin bo'lib, Odam avlodig'a zararlar tegar erdi [7, 2].

Odil va saxiy kishi – Anush

Anush payg'ambar emas erdi, ammo valoyatdin nasibi bor erdi. Va odil va saxiy kishi erdi [7, 2].

Bag'oyat zeboro'y va pisandidaxo'y kimsa – Yazid

Yazid binni Mahloyil. Derlarkim, Yazid bag'oyat zeboro'y va pisandidaxo'y erdi. Va ariqlar qozib, suv chiqordi va ko'p nikoh qilur erdi [7, 3].

Musallasun-na'ma – Axnux

Yazidga qirq o'g'il paydo bo'ldi. Boridin kichikrog'i Axnux erdikim, ani Idris ham derlar. Idris suryoniy payg'ambardur. Cherik tortub, ko'p jihod qilib, Qobil avlodinkim, butparastliq qilur erdilar, qatl va asir qilib, g'azv va jihod qoidasinul arog'a kiyurdi. Va ani xalq musallasun-na'ma deydilarkim, uchunchi payg'ambar va uchunchi hakim va uchunchi podshoh erdi [7, 3].

Ikkinci Odam – Nuh a.s.

Olam ahli aksari Nuh naslidindur. Bu jihatdin ani ikkinchi Odam debdurlar. Va aning to'rt o'g'li bor erdi: Yosaf va Som va Hom va Ka'non [7, 4].

"Payg'ambari mursal" – Yosaf

El Yosafni "payg'ambari mursal" debdurlar. Va ani yeti o'g'li bor erdi: Buka, Xizr, Suqlab, Rur, Bik, Chin, Kamo. Ba'zi sakiz ham derlar [7, 4].

"Bazmi payg'ambari mursal" – Som

Somni ham "bazmi payg'ambari mursal" debturlar va ko'proq anbiyo. Va Eron mulukining naslidandur [7, 4].

So'z dahosi o'z ijodida perifrastik birliklardan foydalanan ekan, bu orqali ushbu lingvistik vositaning til sathida alohida ahamiyatga molik ekanligi, bu vosita o'sha davrda ham tilning asosiy unsuri sanalaganligidan dalolat beradi. Perifrazalar nafaqat

Hazrat Alisher Navoiy ma’naviy merosida, balki, buyuk qomusiy alloma, yirik tilshunos Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham uchraydi.

“Boburnoma” – qomusiy asar. Unda o‘nlab fanlarga oid ma’lumotlar keltiriladi va saqlanadi. Unda tilshunoslikka oid juda ko‘p terminlar, istilohlar va atamalar uchraydi. Jumladan, perifrazalarning ushbu asarda uchrashi, shu asar muallifining so‘z qo‘llay olish mahoratidan, tilning bunyodkorlik qudratini ko‘rsata olishidan darak beradi.

“Boburnoma” ulug‘ bir asar hisoblanadi. Unda lingvistik birliklardan unumli foydalanilgan. Asarda shaxs otlari, shaxsga aloqador bo‘lgan xususiyatlar, shuningdek, o‘rin-joy, hudud, viloyat, shahar, tuman nomalari hamda o‘simgilik, giyoh, dorivor vositalarning nomlari perifrazalangan. Quyida “Boburnoma” asarida qo‘llangan antroponomik perifrastik birliklar keltiriladi va tahlilga tortiladi. Jumladan:

Baland himmatliq, ulug‘ doiraliq – Umarshayx mirzo

Chun Umarshayx mirzo baland himmatliq va ulug‘ doiraliq podshoh erdi [10, 9].

Pokiza e’tiqodliq kishi – Umarshayx Mirzo

Axloq va atvori: hanafiy mazhabliq, pokiza e’tiqodliq kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur erdi [10, 10].

Asru ko‘p suyuklik, ko‘p musallit – Qutuqbegim

Yana biri Qutuqbegim edi. Ushbu Tarxonbeginning ko‘kaldoshi edi. Sulton Ahmad mirzo oshiqliqlar bila olib edi, asru ko‘p suyukluk edi va ko‘p musallit edi. Chog‘ir ichar edi [10, 21].

Bisyor oqila va mudabbira – Esan Davlatbegim

Xotunlar orasida ra‘y va tadbirda mening ulug‘ onam Esan Davlatbegimcha kam bo‘lg‘ay edi, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko‘proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo‘lur edi [10, 25].

Odmi va asil kishi – Shayx Abdullo

Yana biri Shayx Abdullo barlos edi. To‘nni siriq va tor kiyar edi. Odmi va asil kishi edi [10, 29].

Kordon va sohib tajriba podshoh – Sulton Husayn

Sulton Husayn mirzo kordon va sohib tajriba podshoh edi. Qunduz sari suv yuqqori boqa ko‘chti [10, 33]. Sulton Husayn mirzo aqli, bilimdon, ishning ko‘zini biladigan, tajriba egasi, shaxs sifatida o‘ziga xos xarakter-xususiyatga ega bo‘lgan podshoh ekanligini ko‘rsatish maqsadida «kordon va sohib tajriba podshoh» perifrazasidan foydalanilgan hamda yozuvchining tilshunoslik mahorati orqali bu birlik shakllantirilgan.

Ulug‘ ixtiyor bek – Shayx Abdullo barlos

Shayx Abdulla barlos ulug‘ ixtiyor bek edi. O‘g‘lonlari andoq muqarrab va ichki edilarkim, oshiqlik bila mashuqlikka nisbat qilurlar edi [10, 35]. Shayx Abdullo barlos

shaxsiga nisbatan ulug‘ ixtiyorbek perifrazasining qo‘llanishi shu shaxsning yakka shaxs sifatidagi o‘rni, o‘sha davr, muhitdagi roli ko‘rsatilgan.

Sahihi Buxoriy – Imom al-Buxoriy

Yana sohibi “Sahihi Buxoriy”, Xoja Ismoil Xartang ham Movarounnahrdindur [10, 44].

Tarixda, tarixiy asarlarda, ilm olamida, jamiyatda, insonlar orasida Imom Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih”, “Sahihi Buxoriy” nomi bilan tanilgan ushbu kitobi “Al-jome’ as-sahih al-musnad min hadisi Rasulillahi sollallohu alayhi va sallam va sunanihi va ayyamihi” (“Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hadislari, sunnatlari va muborak hayotlaridan to‘plangan sahih musnad”) deb nomlagan. Asar nomini ifodalash, narsa, belgi, holatga ishora qilish orqali semantik jihatdan shu shaxs nazarda tutilayotganligi matndan anglashiladi.

Yoki Abdulla Qahhorning “Mehrobdan chayon” romanida Ra’noning egasi, talab ahlining mirzosi, Mohlaroyimning yarasi, pushti panoho, qiblayi olam, maxdumming asrandisi, ko‘krak bolasi, haram dallasi, hayot sham’i, moltopar, zarurat singari perifrastik birliklar uchraydi. Bu orqali kishi shaxsini, xarakter xususiyatni, uning turmush tarzini ko‘rsatib berish maqsad qilingan.

“Talab ahlining Mirzosi”, “Ra’noning egasi”, “maxdumming asrandisi” kabi perifrazalar romandagi bosh obraz Anvar Mirzoni nazarda tutadi. Muallif shu orqali nutqidagi takror va qaytariqlarning oldini olgan. *Nigor oyim “Ra’noni egasiga topshirmag ‘uningizcha...” deb garchi birmuncha qo‘polroq ta’bir bilan bo‘lsa ham “Ra’noning egasi” borlig‘ini so‘zlar, Ra’no ersa egasining kim ekanligini yaxshi bilgani va uni qanot qoqib qarshi olg‘ani uchun jodu ko‘zida rizosizliq emas, surur ma’nolari o‘ynatar edi (“Mehrobdan chayon” 8-bet).*

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik ilmida til tarixi, tarixiy asarlar leksikasini tadqiq qilish, uning taraqqiyot bosqichlari, ijtimoiy, ma’naviy, lingvistik qiymatini o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz tafakkur mahsuli bo‘lgan manbalarni chuqr tahlil qilish muhim ilmiy yo‘nalishlarni tashkil etadi. Perifrastik birliklarni har tomonlama tadqiq qilish amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, bu orqali o‘zbek tili kechagina yoki bugun to‘satdan paydo bo‘lgan tillar sirasiga kirmasligi, uning o‘z til xususiyatlari, imkoniyatlari mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxs nomlarini perifrazalash orqali shu shaxsga xos bo‘lgan ijobiy va salbiy xususiyatlar, uning iqtidori, jamiyatda tutgan o‘rni, inson sifatidagi ichki olami ham asos qilib olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: “Yangi asr avlodii”, 2011. – 327 b.
2. Ahmadova U. S. Q. “PERIFRAZA” ATAMASI VA UNING NOMLASHDAGI O'RNI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 8. – C. 431-442.
3. Ахмадова У.Ш. ПЕРИФРАЗЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ //Крымскотатарская филология: проблемы изучения и преподавания. – 2020. – №. 1. – С. 24-31.
4. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO. – 2021. – С. 4753-4767.
5. Ahmadovich S. H. CRITERION OF JUSTICE //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 193-204.
6. Alisher Navoiy. Tarixi muluku ajam. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 1967. – B. 239.
7. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 1967. – B. 265.
8. Hayitov S.A. DREAM OF A PERFECT RULER // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – С. 459-463.
9. Hayitov S. A. The altitude of maturity //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 1. – С. 167-172.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B. 367.
11. Sh A. U. Types of periphrases according to social-professional classification //The American Journal of Social Science and Education Innovations, ISSN. – С. 318-325.